“Yashil makon” umummilliy loyihasi amalga oshirilmoqda

Davlatimiz Rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish rejasi ma’lum qilindi. Shunga muvofiq 2-noyabrdan 10-dekabrgacha bo’lgan muddat daraxt ekish bo’yicha “dolzarb 40 kunlik” deb e’lon qilindi.

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti xodimlari tomonidan ushbu loyiha doirasida Mirzo Ulug’bek tumani Kichik halka yo’lidan Parkent bozori ko’chasiga burilish yo’lidagi 300 metr yo’l bo’yiga 250 tup zarang daraxti ko’chatlari ekildi.